

ARAB TILSHUNOSLIGIDA SA'DUDDIN TAFTAZONIYNING ILMIY MEROSI

Masharifov Doniyor Ismoil o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistr talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Sa'duddin Taftazoniy hayoti va uning ilmiy faoliyatini yoritishga bag'ishlangan. Unda Taftazoniy asarlarining Movarounnahrda arab tilshunosligi va islom ilmlarining rivojidadagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Olimning ilmiy merosi, uning balog'at ilmi, usul ilmi va mantiqdagi ishlari chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot Taftazoniy ijodining bugungi zamonaviy ilmiy muhit uchun qanchalik dolzarb ekanligini yoritadi.

Kalit so'zlar: Taftazoniy, mantiq, balog'at, usul ilmi, til nazariyasi, Movarounnahr.

Аннотация: В статье рассматривается жизнь и научная деятельность Са'дуддина Тафтазани. Особое внимание уделено его работам и их влиянию на развитие арабской лингвистики и исламских наук в Мавераннахре. Анализируются научное наследие ученого, его вклад в риторику, усуль и логику. Исследование подчеркивает актуальность его трудов для современной научной среды.

Ключевые слова: Тафтазани, логика, риторика, усуль, языковая теория, Мавераннахр.

Annotation: This article is dedicated to studying the life and scholarly contributions of Sa'duddin Taftazani. It highlights the significance of Taftazani's works in the development of Arabic linguistics and Islamic sciences in Mawarannahr. The research analyzes his academic legacy, focusing on his contributions to rhetoric, Usul al-Fiqh, and logic. This study underscores the relevance of Taftazani's works for contemporary academic discourse.

Keywords: Taftazani, logic, rhetoric, Usul al-Fiqh, language theory, Mawarannahr.

Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan ulamolarning boy ilmiy merosini chuqur tadqiq qilish, uning jahon ilm-faniga qo'shgan ulkan hissasini yoritish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Qolaversa, o'rta asrlarda arab tilshunosligi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Mahmud Zamaxshariy (1075-1144), Abu Ya'qub Sakkokiy (1160-1228), Sa'duddin Taftazoniy (1322-1390) kabi olimlarning asarlarini chuqur tadqiq va tahlil qilish ham katta ahamiyat kasb etadi. Dunyo tilshunosligida o'zining beqiyos ilmiy merosi bilan dong taratgan olimlar orasida Taftazoniy kabi ulug'vor insonlar borligi insonga surur bag'ishlaydi. Ushbu maqolada Sa'duddin

Taftazoniyning hayot yo‘llari va avlodlarga qoldirgan buyuk ilmiy merosi haqida so‘z yurutgan bo‘lamiz:

Dunyoga kelishlari

U zotning to‘liq ismlari Abu Said Mas‘ud ibn Umar ibn Abdulloh Taftazoniy Samarqandiy, Sa‘duddin Taftazoniy ismi bilan mashhur bo‘lgan tilshunos, mufassir, shoir, zamon ulamosi edilar. Tarix kitoblarida Taftazoniyning dunyoga kelish vaqtlari haqida ikki xil ma‘lumot uchraydi.

Birinchi ma‘lumot: Tarixshunos olimlar Maqriziy va ibn Hajar Asqaloni Taftazoniyning umr yo‘llarini 712-791 hijriy hisobda, milodiy hisobda 1312-1389 yillar orasida bo‘lganligini yozishadi [2:3, 371]. Timurlangning hayoti va faoliyati haqida asarlari bilan mashhur bo‘lgan Shihobiddin ibn Arabshoh Taftazoniyning hayot vaqtlarini uning shogirdi A‘lau Al-Buxoriy rivoyatlari asosida belgilaydi va yuqrodagi fikrni qo‘llab quvvatlaydi.

Ikkinchi ma‘lumot: “Taftazoniy 722 - hijriy yilda tug‘ilgan va 792 - hijriy yilda vafot etgan”ligi tog‘risidagi qarash xususida: **Saxaviy** 792-yil voqealarida haqida so‘zlar ekan, shu yilda vafot etganlar haqida so‘z yuritgach, u shunday yozadi: “Ibn Jazariy Taftazoniyni shu yilda (792 h.) vafotini zikr qilib, uning tug‘ilgan sanasini 722 - hijriy yil deb qayd etgan [6, 259].”

Ibn Hajar Asqaloni “Ad-Dururu al-Kamina” asarida esa, Taftazoniyning tarjimai holi haqida so‘z yuritib shunday yozadi: “U 792 - yil safar oyida vafot etdi. U zotning tug‘ilgan sanasi Ibn Jazariyning qo‘lyozmasiga ko‘ra 712 - hijriy yil, menga Shihobiddin ibn Arabshoh ham (shu haqida) zikr qilgan edi [1:5, 120].”

Taftazoniyning kitoblari tadqiqotchi olimi Ziyouddin Al-Qolish tahminlariga ko‘ra **722 hijriy yilini 712 hijriy yilga** o‘zgartirib yozilgan bo‘lishi mumkin. Bunga sabab esa, Saxaviyda keltirilgan dalillar bunga ishora qiladi. Ibn Hajar esa Ibn Jazariyning rivoyatini keltirgan va keyinchalik Ibn Arabshoh A‘lau Al-Buxoriy eshitganlarini yozib olgan degan qarashga to‘xtaladi [4, 27].

Bir necha dalillarga suyanagan holda Sa‘duddin Taftazoniyning hayot yillarini 722-792 hijriy yillar deb belgilay olamiz, bu esa milodiy 1322-1390 yillarga to‘g‘ri keladi.

Ahli-oilalari

Bizga yetib kelgan xabarlarga ko‘ra Taftazoniy ahli ilmlar oilasida dunyoga keladi. Uning otasi qozi edi. Taftazoniy kitoblarining biriga muqaddima yozar ekan shunday bitiklarni qoldirdi: “Umar qozi o‘g‘li Mas‘ud At-Taftazoniy behojat Allohga ehtiyojmand inson aytadi....”.

“Mihtah al-Sa‘ada” kitobi muallifi Ahmad ibn Mustafo Toshkabriyzoda o‘z kitobi Taftazoniy haqida shunday yozadi: “Mas‘ud qozi, dinning faxri bo‘lmish Umarning o‘g‘li, u(Umar) esa ulug‘ mavlo, dinning burhoni Abdullohning o‘g‘li...[3, 190]”. Bu ma‘lumotlardan ko‘rinadiki Taftazoniy olimlar silsilasini davomchisi edi.

Olimning Muhammad ismi o'g'li bo'lib unga atab "**Tahzib al-Kalam**" asarini yozadi va bu haqida kitob muqaddimasida keltiradi [5, 11]. Shuningdek, olim "**Al-Irshod**" nahviy asarini ham farzandiga atab yozganligi haqida kitob muqaddimasida yozadi. Taftazoniyning Muhammad ismli farzandi 838– hijriy yilda, milodiy 1435 – yilda vafot etadi. Uning Yahyo ismli farzandi bo'lib, u "**Qutbu Ad-Din**" laqabi bilan tanilgan Islom dinining oqsoqoli va qozisi edi. U hijriy hisobda 887 – yil, milodiy hisobda 1483 – yil vafot etadi. Yahyoning Ahmad ismli o'g'li bo'lib "**Shayx al-Islom**" nomi bilan mashhur va Taftazoniyning nabirasi nomi bilan tanilgan olim inson edi. U o'ttiz yil davomida Hirot shahri qozisi bo'ldi va 916-hijriy yilda, 1504 – milodiy yilda vafot etadi. Ahmad bobosing Mutavval kitobiga sharh ham yozganligi tarixiy manbalarda keltiriladi.

Dunyoga kelgan yurtlari

Movarounnahr yurti Xurosonning mashhur shaharlaridan bo'lgan Niso shahriga qarashli Taftazon qishlog'ida dunyoga kelgan. Bu yer hozirgi Turkmaniston yerlarida joylashgan shahardir. O'sha davrda Niso shahri yirik ilmiy markazlardan biri bo'lgan. Imom Taftazoniy yoshligidan o'z qishlog'i Taftazonni tark qilib, ilm olish uchun Niso shahriga keladi. U yerda xat qoidalarini, imloni, dastlabki diniy ilmlarni o'rgandi va Qur'onni yod oldi.

Ustozlari va shogirdlari

Sa'duddin Taftazoniy ilmiy safarlari davomida bir necha ustozlardan dars oldilar:

1. Qozi I'ddudin Al-Iyjiy, 2. Qutbiddin Ar-Roziy, 3. Bahouddin Samarqandiy, 4. Nasiruddin At-Tirmiziy, 5. Alauddin Sig'noqiy kabi zamon ulamolarining shogirdlari bo'lganlar.

1. Alauddin Ar -Rumiy, 2. Hisomuddin Al-Abivardiy, 3. Fathulloh Sharvoni, 4. Alauddin Al-Buxoriy, 5. Jaloliddin Yusuf Al-Avbahiy kabi olim shogirlari ham ko'p bo'lgan.

Ilmiy faoliyatlari

Olim ilm yo'lida bir necha shaharlarga rihlat qildilar. Ba'zi kitoblarining muqaddimalarida bunga ishora ham berib ketganlar. Taftazoniy hijriy 742-yilda Xorazmning Urganch shahrida "**Sharhu at-Talhis**" kitoblarini yozishga kirishadilar. Xuroson davlatida boshlangan fitna to'lqinlari olimni Hirot yurtiga safar qilishlariga majbur etadi. "**Sharhu at-Talhis**" kitoblarini shu yurtda hijriy 748 – yil yozib tamomlaydilar. Bir necha Xuroson shaharlarida bo'ldilar. Jom shahrida 752 - hijriy yilda "**Sharhu ash-Shamsiya**" kitoblarini yozib tamomlaydilar. Shu yilning o'zida Sarxas shahrida "**Miftah al-Fiqh**" asarini yozishga kirishadilar. Buxoro shahri G'ijduvonda 756 – hijriy yilda "**Sharh muxtasar at-Talxis**" asarlarini yozib tamomlaydilar. Olim Turkiston yerlarida 758 – hijriy yilda o'zining "**At-Talvih ila kashfi Haqiqi aht-Tanqih**" asarlarini yozadilar. So'ngra 759 – hijriy yilda Hirotga qaytadilar va "**Al-Fatva al-Hanafiyya**" asarini yozishga kirishadilar. Olim Xorazm

yurtiga safar qilib 768 – hijriy yilda “**Sharh al-Aqoid**” kitoblarini talif qiladilar. “**Al-Irshod**” nahviy risolasini 778 – hijriy yilda yozishga kirishadilar. Bu yillar Amir Temurning Xorazm yurishlari yillariga to‘g‘ri keladi. Saraxson shahriga olimning safar qilishiga ruxsat bergan Amir Temur u zotning fazllarini bilgandan so‘ng o‘z oldilariga Samarqand shahriga chaqirib oladilar.

Ilmiy merosi

Al Irshod - farzandiga atab yozilgan muxtasar nahviy risola. 778 – hijriy yilda Xorazmda yozib tugallangan. Bu asarga ko‘plab sharhlar yozilgan.

At-Talvih ila kashfi Haqiqi At-Tanqih – Usulul fiqh faniga Turkistonda yozilgan asar.

G‘oyatu tahzib Al-Kalam fi tahrir al-Mantiq va Al-Kalam – olim o‘g‘li Muhammadga atab yozgan asari bo‘lib hijriy 789 – yil Samarqandda yozib tugatilgan.

Sharhu Tasrifu Az-Zanjoniy – Izzuddin Zanjoniyning “Kitob al-Izziy” asariga yozilgan sharh bo‘lib, hijriy 738 – yild yozib tugatilgan.

Sharhu At-Talxis – Mutavval nomi bilan mashur.

Sharhu Ash -Shamsiyya – Mantiq ilmi fani doirasida yozilgan asar bo‘lib, 756-hijriy yilda Mozorjomda yozib tugatilgan.

Sharhul Aqoid – Najmiddin Nasafiyning Aqoid kitoblari yozilgan sharh, 768–yil Xorazmda yozilgan.

Maqosid va uning sharhi – Kalom ilmi doirasida yozilgan asar bo‘lib, 784 – hijriy yilda yozib tugatilgan.

An-Niamu As-Savabig‘u fi sharhi An-Navabog‘u – Zamaxshariyning Navabig‘u al- Kalim asariga yozilgan sharh bo‘lib u nahviy va lug‘aviy ilmlar bilan boyitilgan.

Taftazoniy yana boshqa ko‘plab kitob va durdona qo‘lyozma asarlari muallifidir.

Vafoti

Sa‘duddin Taftazoniy 792 – hijriy yil safar oyida darul baqoga hijrat ayladilar. Olimning asarlari o‘rta asr musulmonlari dunyosida keng o‘rganilgan va hozirgi kunda ham ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Alloh u zotni o‘z rahmatiga olsin.

Xulosa: Sa‘duddin Taftazoniy Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan buyuk olimlardan biri bo‘lib, uning ilmiy merosi arab tilshunosligi va islom ilmlari rivojida muhim o‘rin tutadi. Uning ilm yo‘lida qilgan xizmatlari, yozgan asarlari va qoldirgan boy merosi bugungi kunda ham ilmiy doiralarda katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Taftazoniy nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olim sifatida tarixda o‘z nomini abadiy qoldirdi. Alloh u zotning ilmiy mehnatlarini mukofotlasin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad bin Ali bin Muhammad bin Hajar al-Asqalani Shahab al-Din. *Al-Durar al-Kamina fi Ayan al-Mi'ah al-Thamina*. – Hyderabad: Da'irat al-Ma'arif al-'Uthmaniyya, Hyderabad. 2006
2. Ahmad bin Ali al-Maqrizi Taqi al-Din. *Durar al-'Uqud al-Firida fi Tarajim al-Ayan al-Mufida*. – Beirut: Dar al-Gharb al-Islami. 2007
3. Ahmad bin Mustafa al-Shahir bi-Tash Kabirzadeh. *Miftah al-Sa'ada wa Misbah al-Siyada*. – Lebanon: Dar al-Kutub al-'Ilmiya. 1985
4. Diya' al-Din al-Qalash. *Al-Taftazani wa Arā'uhu al-Balaghiya*. – Damascus: Dar al-Nawadir. 2010
5. Abd al-Qadir al-Takhti al-Sanandaji al-Kurdistani. *Taqreeb al-Maram fi Sharh Tahdhib al-Kalam li al-Taftazani*. – Lebanon: Dar al-Kutub al-'Ilmiya. 2017
6. Muhammad bin 'Abd al-Rahman al-Sakhawi Shams al-Din. *Wajiz al-Kalam fi al-Dhayl 'ala Duwal al-Islam*. – Syria: Maktabat al-Risala. 2012